



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



## XITOIY TILINING TIL SOHASIDAGI UMUMIY HOLATI

**Sadoqat Toshpulatova**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

Bugungi globallashuv va raqamli axborot davrida dunyo tillari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va raqobat kuchayib bormoqda. Bu jarayonda Xitoy tili (putongxua yoki mandarin tili) nafaqat Sharq sivilizatsiyasi madaniy merosining asosi, balki xalqaro aloqalar, ilm-fan va iqtisod sohasida butun dunyo miqyosida muhim kommunikativ vosita sifatida o'z o'rnini mustahkamlamoqda. Xitoy tili dunyodagi eng qadimiy yozma tizimga ega tillardan biri bo'lib, hozirda 1,4 milliarddan ortiq inson tomonidan ona tili sifatida qo'llaniladi. Bu ko'rsatkich uni dunyoning eng ko'p so'zlashiladigan tili sifatida e'tirof etish imkonini beradi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirgi davrda xitoy tilining xalqaro maydondagi mavqei yildan-yilga oshib, global ta'lim, diplomatiya va biznes sohalariga chuqur kirib bormoqda. Ushbu tezisda xitoy tilining hozirgi til sohasidagi holati, zamonaviy til sohasidagi o'rni, rivojlanish omillari hamda xalqaro maydondagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Xitoy tili oltoy tillar oilasiga mansub bo'lmay, mustaqil sino-tibet tillari oilasining yirik vakili hisoblanadi. U ko'plab dialektlarga ega bo'lib, asosiylari quyidagilar: mandarin (putongxua), kanton (yue), min, wu, hakka va boshqalar. 1950-yillardan boshlab Xitoy Xalq Respublikasi hukumati mandarin tilini yagona adabiy me'yor sifatida belgilab, uni "putongxua" deb atay boshladi. Xitoy yozuvi ierogliflar tizimiga asoslangan bo'lib, u logografik belgilar orqali so'z ma'nosini ifodalaydi. Xitoy yozuvi tarixan juda murakkab bo'lgan, biroq 1956-yilda soddalashtirilgan ierogliflar joriy etilgach, savodxonlik darajasi keskin oshdi. Bu til siyosati mamlakatda bir xil yozuv va talaffuz me'yorini shakllantirishga yordam berdi.

Xitoy tilining davlat miqyosidagi o'rniga to'xtaladigan bo'lsak, Xitoy tilining davlat miqyosidagi mavqei XX asrning ikkinchi yarmida aniq belgilandi. 1955-yilda Xitoy Xalq Respublikasi hukumati "Putongxua — yagona davlat tili" deb e'lon qildi. Bugungi kunda xitoy tili mamlakatdagi barcha maktablarda o'qitiladi, davlat boshqaruvi, sud tizimi va ommaviy axborot vositalarida ishlatiladi. Shu bilan birga, mamlakatda 50 dan ortiq milliy ozchilik tillari mavjud. Hukumat tomonidan olib borilayotgan "Hanyu tuiguang" dasturi orqali mandarin tili targ'ib qilinarkan, ozchilik tillarini asrash va ularni rivojlantirishga ham e'tibor qaratilmoqda. Bu til siyosati Xitoyning ichki birlikni ta'minlash bilan birga, til xilma-xilligini saqlashga xizmat qilmoqda.

Xitoy tilining xalqaro miqyosdagi holatiga nazar soladigan bo'lsak, so'nggi yigirma yil ichida xitoy tili xalqaro maydonda eng tez o'sayotgan tillardan biriga aylandi. Konfutsiy institutlari dunyoning 160 dan ortiq mamlakatida faoliyat yuritmoqda va millionlab talabalar xitoy tilini ikkinchi til sifatida o'rganmoqda. Xitoyning iqtisodiy va siyosiy nufuzi oshgani sari, bu til diplomatiya, xalqaro savdo, texnologiya va ta'lim sohalarida tobora ko'proq





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



qo‘llanilmoqda. Internet tarmoqlarida ham xitoy tili eng ko‘p ishlatiladigan tillardan biri bo‘lib, raqamli sohada yangi texnologik terminologiyaning shakllanishiga sabab bo‘lmoqda.

Zamonaviy xitoy tilining rivojlanish tendensiyalari ham e‘tiborga molik. Jumladan, zamonaviy xitoy tili leksik jihatdan juda faol rivojlanmoqda. Texnologiya va madaniy almashinuv tufayli ingliz tilidan kirib kelgan so‘zlar (“kafei” – coffee - kofe, “ka” – car - mashina, “leida” – radar) tobora ko‘paymoqda. Shu bilan birga, yangi atamalarni xitoycha ildizlar asosida yaratish tendensiyasi ham mavjud. Sun‘iy intellekt, internet va raqamli kommunikatsiya sohalarida yangi so‘zlarning tez paydo bo‘lishi tilning zamonaviy talablarga moslashuvchanligini ko‘rsatadi. Tilning fonetik va grammatik soddalashuvi, so‘z tartibining barqarorlashuvi va sinonimlarning ortib borishi xitoy tilining tabiiy rivojlanish jarayonini ifodalaydi.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, Xitoy tili bugungi kunda nafaqat Sharqning madaniy ramzi, balki global iqtisod, fan, texnologiya va diplomatiya tili sifatida jadal rivojlanmoqda. U millionlab o‘quvchilar tomonidan ikkinchi til sifatida o‘rganilmoqda, bu esa uning xalqaro nufuzini oshirmoqda. Xitoy tilining hozirgi umumiy holati — bu rivojlanish, kengayish va xalqaro integratsiya jarayonlarining ifodasidir. Shu bois, xitoy tilini o‘rganish nafaqat tilshunoslik nuqtai nazaridan, balki madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, iqtisodiy hamkorlik va global aloqa imkoniyatlarini kengaytirish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 《现代汉语》（Xiandai Hanyu）– Li Jinxi. 北京大学出版社, 2019.
2. Norman, Jerry. Chinese (Cambridge Language Surveys). Cambridge University Press, 2017.
3. “The Promotion of Putonghua Policy in the PRC”, Language Policy Journal, 2021.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. Sharq tillari va madaniyatlari o‘quv qo‘llanmasi, Toshkent, 2022.
5. Crystal, David. The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge University Press, 2019.
6. Xitoy Xalq Respublikasi Ta‘lim vazirligi rasmiy sayti — [www.moe.gov.cn](http://www.moe.gov.cn)